

SEMIZ AYOLLARDA XOMILADORLIK

PhD. **Ismoilova Shoir**a To‘lqinovna,
Magistr **Muxlisaxon Oblayorova Inyaminjon qizi**,
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti.
E-mail: muxlisaoblayorova095@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb bo‘lib kelayotgan ortiqcha tana vazniga ega bo‘lgan homilador ayollarni davolash xaqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Semizlik, homiladorlikda ortiqcha vazn, adipotsitlar, homiladorlik kechishi.

PREGNANCY IN OBESE WOMEN

Abstract: This article provides information on the treatment of overweight pregnant women, which is currently relevant.

Key words: Obesity, overweight in pregnancy, adipocytes, pregnancy.

Semizlik — yog‘ almashinuvi bilan bog‘liq bo‘lgan patologiya, ayollar orasida eng ko‘p tarqalgan holatlardan biri hisoblanadi va hozirgi kunda bu muammo kun sayin ortib bormoqda. Akusherlik va ginekologiya sohasida ortiqcha tana vaznidan aziyat chekuvchi ayollar 15,5-26,9 % holatlarda qayd etiladi. Ushbu patologiyaning dolzarbligi shundaki, ortiqcha tana vazni homilador ayollarda turli toksikozlarga va perinatal o‘lim holatining ko‘p qayd etilishiga olib kelishi bilan bog‘liq. Homiladorlik vaqtida, umuman har qanday holatda ham ortiqcha vazn to‘planishi energetik disbalans bilan bog‘liq, ya’ni qabul qilinadigan energiya miqdori sarflanadigan energiya miqdoridan ko‘p bo‘lishi. Semizlik 95 % holatlarda noto‘g‘ri ovqatlanish, kaloriyaga boy bo‘lgan mahsulotlar, tarkibida glyukoza ko‘p bo‘lgan mahsulotlar va kamharakatlilik natijasida rivojlanadi. Ortiqcha tana vazni to‘planishida nasliy moyillik ham katta rol o‘ynaydi. 5 % hollarda

esa endokrin kasalliklar tufayli tana vazni ortishi ham mumkin, bundan tashqari tug‘ma fermentopatiyalar, yog‘ almashinuvining tug‘ma buzilishi, MNT dagi patologiyalar, buyrak usti bezi kasalliklari, gipotireoz holatlari ham semizlikka olib keladi. Homiladorlik vaqtida esa bir qator omillar ayol kishida vazn ortib ketishida ahamiyatga ega. Homiladorlikda ortiqcha vazn — homiladorlik vaqtida teri osti yog‘ qavati va turli a‘zolarida yog‘ kletchatkasining ortiqcha to‘planishi, hamda bu jarayonning homiladorlik kechishiga ta‘sir etishi bilan namoyon bo‘luvchi holat. Ushbu holat semizlik, yog‘ burmalarining tananing ko‘rinarli sohalariida paydo bo‘lishi, jismoniy harakatlar bajarishga chidamsizlik, harakatning cheklanishi va hansirash kabi belgilar bilan yuzaga chiqadi. Ortiqcha vazn tashxisi TVI (tana vazn indeksi) ga asoslanib qo‘yiladi. Davo chora tadbirlarida ovqatlanish ratsionini to‘g‘rilash, jismoniy faol bo‘lish va homiladorlik toksikozlarining oldini olishga qaratiladi. Ortiqcha yog‘ to‘planishida – adipotsitlar (yog‘ hujayralari) da ortiqcha energiya to‘planishi natijasida lipogenez jarayonining kuchayishi yotadi. Energetik disbalans ortiqcha ovqatlanish hamda kamharakatlilik natijasida rivojlanadi. Ortiqcha kaloriyali ozuqa mahsulotlarini ko‘p iste‘mol qilish ishtaha gipotalamik markazi funksiyasi buzilishiga olib keladi, natijada ayol kishi ortiqcha miqdorda ovqat iste‘mol qilishga odatlanib qoladi. Kam holatlarda ishtahaning neyrohumoral buzilishiga sabab yallig‘lanish jarayonlari (meningit, ensefalit) yoki bosh miya jarohatlari bo‘lishi mumkin. Homiladorlik vaqtida ishtahaning ochilishi grelin moddasining fiziologik gipersekretsiyasi ham sabab bo‘ladi. Semizlikni tasniflashda mutaxassislar quyidagi holatlarga e‘tibor qaratadilar: ovqatlanish tartibi, metabolik o‘zgarishlar bor yoki yo‘qligi, yog‘ to‘plangan tananing sohalari, normal tana vazni va ortiqcha massa nisbati. Homiladorlik vaqtida ortiqcha tana vazni asosan alimentar hamda ayol kishining o‘ziga xosligi, kam holatlarda esa ikkilamchi belgi sifatida yuzaga chiqadi. Yog‘larning tananing qaysi sohasida to‘planishiga qarab – ginoid (pastki qismlar), android (yuqori qismlar) va aralash tiplari farqlanadi. Homiladorlik kechishi va homilaning ahvolini baholashda tana vaznining ortishi homiladorlik ro‘y berishidan

avvalgi ayol tana vazni bilan solishtirib ko‘riladi. Homiladorlikda semizlik belgilari. Semizlikning klinik belgilari uning darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Kasallikning boshlanish davrlarida ayol kishi holsizlik, tez charchab qolish, ko‘p terlash va hansirash kabi belgilar bezovta qilishi mumkin. Odatda bu kabi ayollar ich qotishidan ham aziyat chekadilar. Tashqi ko‘rinishdan son, dumba, qorin, ko‘krak qafasi, bel sohasi, bel, bo‘yin va iyak sohalarida ortiqcha yog‘ to‘langanlik belgilari ko‘zga tashlanadi. Ko‘krak sut bezi nafaqat homiladorlikda proliferatsiya hisobiga balki yog‘ to‘qimasi hisobiga ham kattalashadi. Kasallikning III-IV darajalarida ortiqcha yog‘ burmalar ko‘rinishida to‘planadi, hansirash belgilari kuchayadi, harakatlanish cheklanadi, tananing periferik qismlarida shishlar kuzatilishi mumkin. Ko‘pincha ayollar bel sohasidagi, chanoq sohasidagi va tizza bo‘g‘imidagi og‘riqlarga shikoyat qiladilar. Ortiqcha tana vaznidan aziyat chekuvchi ayollarda rivojlanadigan asoratlarning orasida eng xavflisi qandli diabet hisoblanadi. Ortiqcha tana vazniga ega bo‘lgan homilador ayollarni davolash asosan energetik balansni tiklash va asoratlar rivojlanishining oldini olishga qaratiladi. Ozish uchun medikomentoz va operativ davo o‘tkazish mutlaqo mumkin emas, **och qolish esa tavsiya etilmaydi**, och qolish natijasida qonda keton tanachalari miqdori oshib ketadi va bu homilaga salbiy ta‘sir etishi mumkin. Homiladorlik kechishi va tug‘ruq jarayoni semizlikning darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, xomiladorlikda semizlik natijasida rivojlanuvchi asoratlar profilaktikasiga homiladorlikni rejalashtirish vaqtida tana vaznini normal holatga keltirish, jinsiy a‘zolarida rivojlanuvchi kasalliklarni bartaraf etish, akusher-ginekolog va dietolog bilan maslahatlashish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Радынова С.Б., Иванова Е.А. ОСЛОЖНЕНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ И РОДОВ У ЖЕНЩИН С ОЖИРЕНИЕМ // Современные проблемы науки и образования. – 2018.
2. Lustig RH, Post SR, Srivannaboon K, et al. Risk factors for the development of obesity in children surviving brain tumours. J Clin Endocrinol
3. Иловайская И.А. Влияние ожирения у женщин на фертильность и вынашивание беременности // РМЖ. 2016